



QURILISH FANLARIDA ATAMALAR MUAMMOSI

Olimbek Davronov

t. f. n., dotsent, Toshken xalqaro Kimyo universiteti

olimbek_davronov@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada qurilish sohasidagi atamalar, harfiy belgilarni darsliklar, o'quv qo'llanmalari va miy'yori hujjatlarda qo'llanilishi, ulani qo'llashdagir nomutanosibliklar muhokama qilinadi. QMQ, ShNQlar misolida atamalardan foydalanishdagi xilma-xilliklar ko'rsatilib, ushbu kamchiliklarni bartaraf etish yo'llari taklif etiladi.

Аннотация. В статье рассматривается применение терминов и буквенных обозначений в области строительства, в учебниках, учебных пособиях и нормативных документах, а также несоответствия в их употреблении. Показаны примеры разнообразия форм при использовании одних и тех же, терминов на примере КМК, ШНК и предложены пути устранения этих недостатков.

Annotation. The article discusses the use of terms and letters symbols in the field of construction, in textbooks, teaching aids and regulatory documents, as well as inconsistencies in their use. Examples of the diversity of forms when using the same terms are shown on the example of QMQ, ShNQ, and ways to eliminate these shortcomings are proposed.

Berilgan ta'riflarga muvofiq atama, termin (lotincha termiinus "chegara" so'zidan) – fan va texnikada biror bir tushunchaning qat'iy belgilangan nomi bo'lgan so'z yoki iboradir

O'zbek tilida texnika, xususan qurilish sohasidagi zamonaviy atamalar o'tgan asrning oltmishinchi yillaridan urfga kira boshladi.

Mustaqillikgacha bo'lgan davrda olimlaimiz M.T. O'razboev, R. Xorunov, E. A. Odilxo'jaev va boshqalar tomonlaridan yaratilgan darsliklar, akademik T. R. Rashidov muharrirligida chop etilgan "Politexnik lo'g'at" qurilish sohasida o'zbek tilidagi atamalarni shakllanishiga katta hissa qo'shdi. Ta'kidlash joyizki, ushbu davrdagi qo'llanilgan atamalarda rus tilini ta'siri kuchli edi.

Vatanimiz mustaqillikga erishganidan so'ng davlat tilida chop etilgan adabiyotlar va lo'g'atlar soni keskin oshdi. Qurilish mutaxassisliklari bo'yicha muxandislar tayyorlovchi oliy va o'rta maxsus ta'lim muassalarida, barcha fanlar bo'yicha o'quv qo'llanmalari, darsliklar yaratilib, chop etildi. Ilk bor qurilish bo'yicha miyyoriy hujjatlar o'zbek tilida nashr qilindi. Olimlarimiz O.U. Salimov, E. U. Qosimov, B. A. Asqarovlarni sa'i harakatlari bilan o'zbekcha -ruscha politexnik, o'zbekcha-ruscha-inglizcha lo'g'atlar dunyoga keldi. Bu esa qurilish atamalarini katta bazasini vujudaga kelishiga sabab bo'ldi. Tilimizning boy xazinasidan foydalanilgan holda yangi atamalar iste'molga kiritildi.

Ko'rinib turibdiki, bugungi kunda, texnika sohasida ham, qurilish sohasida ham atamalarni yetarli to'plami mavjud. Xo'sh, bugungi kunda biz ushbu xazinadan to'g'ri foydalanayapmizmi?

Yuqorida keltirilgan ta'rifga ko'ra atama fanning biror bir tushunchasini qat'iy belgilangan nomi bo'lgan so'z yoki iboradir. Bu esa o'z navbatida, bitta atama barcha darsliklar, o'quv qo'llanmalar va miy'yoriy hujjatlarda bir xil ma'noga ega bo'lishi, yoki bir tushuncha barcha hujjatlarda bir xil nomlanishini taqozo etadi. Chop etilgan adabiyotlar, miyyoriy hujjatlarni tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, atamalar va ularni sinonimlarin qo'llash bugungi kunda mualliflar va tarjimonlarga bo'g'liq bo'lib qolgandir. Chunki ularni qollanilishini tartibga solish va nazorat qilish to'g'risida biror bir miyyoriy hujjat ham, qoida ham yo'q.

Mulohazamiz quruq bo'lmasligi uchun ba'zi misollarni keltiramiz.

Ma'lumki barcha qurilish konstruksiyalarini hisoblash, ularga ta'sir etayotgan yuklarni yig'ishdan boshlanadi. Kuchlarni qo'yilish usuliga qarab turlari ba'zi adabiyotlarda yoyiq va yig'iq, ba'zilarida to'plangan va taralgan yoki taqsimlangan

deb yozilgan, lo'g'atlarda esa jamlangan, to'plangan va taqsimlangan shaklda keltirilgan.

Konstruksiyalarni asosiy xususiyatlarini nomlashda ham nomutanosibliklar mavjud: bikirlik atamasi ba'zi joylarda qattqlik iborasi bilan, ustuvorlik atamasi esa turg'unlik, barqarorlik atamalari bilan almashtirib yuborilgan. Hisobiy sxemalarda to'sinlar va balkalar, arkalar va ravoqlar, tutash va uzluksiz to'sinlar kabi ikki xil nomlanishlar mavjud.

Alohida elementlarni tutashuvidan tashkil topgan sxemalar bir joyda sistema, boshqa joyda esa tizim deb nomlanadi. Shunday tizimlardan noma'lumlari soni statikani muvozanat tenglamalari sonidan ko'p bo'lgan shakllari bir joyda statik noaniq deb atalsa, boshqa joyda statik aniqmas deb keltiriladi. Bizningcha, bu yerda noaniq so'zi aniqmas so'ziga qaraganda ko'proq mavhumlikka yaqinroq. Albatta "no" old qo'shimchasini atamalarda qo'llashda bizga tilshunoslarni yordami kerak bo'ladi. Chunki atamalar orasida noustuvor, nomarkaziy, nochiziqli va h.k. iboralar ko'p bo'lib ularni ham o'ziga xos sinonimlari mavjud.

Shu yerda yana bir tushuncha haqida o'z fikrimizni bildirsak. Texnik adabiyotlarimizda ko'p yillardan beri "zamin" atamasi qo'llanilib keladi. Ushbu atama binolarning poydevori ostiga qo'yiladigan to'shamaga nisbatan ishlatiladi. Gap shundaki "zamin" so'zi forsiy tillarda "yer" ma'nosini anglatadi, ya'ni yer ustiga "yer" to'shalayapdi. Lo'gatlarda ushbu tushuncha asos, negiz deb tarjima qilinadi. Qo'shni davlatlardaham bu atama o'rnida asos so'zi ishlatiladi.

Albatta, bizda adabiyotlarimiz, miyyoriy hujjatlarimizda qo'llaniladigan atamalar orasidagi barcha nomutanosibliklarni tahlil qilish imkoniyati yo'q. Buni boshqa mutaxassislar to'ldirishlari mumkin. Ammo, yuqorida keltirilgan misollarni o'zi ham bunday muammo mavjud ekanligini va uni yechish lozimligini ko'rsatadi.

Shu yerda yana bir masalaga to'xtalib o'tsak. Ma'lumki, texnika fanlarida barcha masalalar formulalar yordamida yechiladi. Formulalarda har bir tushuncha bitta har bilan ifodalanadi va o'zining o'lchov birligiga ega bo'ladi. Afsuski adabiyotlarimizda ushbu masalada ham yakdillik yo'q. Bu ham o'quv jarayonida miy'yoriy hujjatlar va o'quv adabiyotlaridan foydalanishni mushkullashtiradi.

Bizningcha, bu muammolarni miyyoriy hujjatlar: Davlat standartlari, QMQ, ShNQlar yordamida yechish mumkin. Buning uchun avval ushbu hujjatlarni ozini tartibga solish kerak bo'ladi. Chunki, bu hujjatlarni o'zbek tilidagi nusxalari mutaxassislarni batafsil tahrirlariga muhtojdirlar.

Biz respublikamiz hududida amalda bo'lgan ikkita miy'yoriy hujjat KMK 2.03.01-96 Бетон ва темирбетон конструкциялар, ШНК 2.03.05-13 Шаҳарсозлик нормалари ва қоидалари. Пўлат конструкциялар. Лойиҳалаш меъёрлари ni tahlil qilganimizda ularning o'zbek tiliga qilingan tarjimalari nomutaxassislar tomonidan, nihoyatda sifatsiz bajarilganini ko'rdik.

Masalan beton va temirbeton konstruksiyalari bo'yicha QMQ da konstruksiyalarni hisoblash uchun qo'llaniladiga chegaraviy holatlar usuli hisob – kitoblarning eng so'nggi holati, oxirigi holati deb nomlangan. Temirbetonni asosiy tushunchalaridan biri bolgan yoriq tushunchasi bir joyda tirqish, ikkinchi joyda darz shaklida keltirilgan. Shuningdek ko'chish-joydan joga o'tish, egilish- bo'linish, ishonch koeffitsiyenti- mustahkamlik koeffitsiyenti, statik aniqmas-statistik jihatdan aniqlab bo'lmas, siqilish-siquv, cho'zilish-yoyiluv va h.k. kabi adabiyotlarda uchramaydigan atamalar bilan berilgan.

Polat konstruksiyalar bo'yicha ShNK ada ham shunga o'xshash xatolar to'lib yotibdi. Masalan: ustuvorlik bir joyda turg'unlik, boshqa joyda barqarorlik, ko'chish-siljish, elastik-tarang, siqilish-qisuv, nomarkaziy-markazdan tashqari, egilish-bukilish va h.k.

Bundan tashqari ikkala hujjatda ham o'zak atamasi ishlatilgan. Temir betonda ushbu ibora armaturani anglatsa, po'lat konstruksiyalarda sterjenni bildiradi. Umuman olganda, bizning tilimizda, asli lotincha bo'lgan armatura so'zi ham, ruscha bolgan sterjen so'zi ham ommalashib bo'lgan. Shuning uchun ushbu iboralarni o'z holicha qoldirigan ma'qul deb hisoblaymiz.

Yuqorida keltirilgan kamchiliklar boshqa QMQ va ShNQ larda ham topiladi. Bu o'z navbatida ushbu miy'yoriy hujjatlarni davlat tilidagi nusxalariga yetarli e'tibor berilmayotganini ko'rsatadi.

Yangi talablarga muvofiq QMQ va ShNQ larda qo'llanilgan atamalar va qiymatlarni belgilovchi harflar, to'plamlari ilovalar tarzida keltirilishi lozim. Ushbu hujjatlarni keying nashrlarida bu ilovalarga alohida e'tibor qaratish, ularni barcha hujjatlarda bir xilligini ta'minlash kerak. Shunda biz qurilish sohasi bo'yicha bir xil atamalar, bir xil formulalar va bir xil birliklarga ega bo'lamiz. Ularga rioya qilishni esa majburiy qilib qo'yish kerak.

Bu qurilish sohasi uchun mutaxassislar tayyorlash sifatini o'shishiga ham yordam beradi. Ta'lim muassasinini tamomlagan yosh mutaxassisni ishlab chiqarishga moslashuvini osonlashtiradi. Bir xillikni ta'minlash uchun, bizning fikrimizcha, qurilish vazirligi qoshida maxsus guruh tashkil etib, unga mamlakatimizni yetakchi olimlarini jalb etish lozim. Ushbu guruhga, qisqa muddat ichida, mavjud muammolar hal etib, miy'yoriy hujjatlarni qayta nashr etishni yoki electron variantlarini tayyorlashni topshirish kerak.

Yuqorida qayd etilgan muammolarni yechish, respublikamizda davlat tilida tayyorlanayotgan miy'yoriy hujjatlar sifatini yaxshilash bilan birgalikda, qurilish yo'nalishi bo'yicha ta'lim sifatini oshirishga ham xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. O'razboev M. T. Nazariy mexanika asosiy kursi. "O'qituvchi", T., 1966.
2. O'razboev M. T. Materiallar qarshiligi asosiy kursi. "O'qituvchi", T., 1973.
3. Xorunov R. Chizma geometriya. "O'qituvchi", T., 1968.
4. Odilxo'jaev E. A. Qurilish mexanikasi. "O'qituvchi", T., 1972.
5. Politexnik lo'g'at. Muharir akademik T. R. Rashidov.
6. O'zbek tilining izohli lo'g'ati. A. Madvaliyev tahriri ostida. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent.
7. Ruscha - O'zbekcha - Inglizcha-Qoraqalpoqcha qurilish atamaları lo'g'ati. Mas'ui moharrir E.U. Qosimov. "Fan va texnologiya" Toshkent 2017.
8. QMQ 2.01.07-96. Yuklar va ta'sirlar. Toshkent 1996.
9. ShNK 2.03.05-13. Po'lat konstruksiyalar. Toshkent 2013.
10. ShNK 2.03.01-18. Beton va temirbeton konstruksiyalar. Toshkent 2013.
11. QMQ 2.03.08-98. Yog'och konstruksiyalar. Toshkent - 1997.
12. QMQ 2.01.03-2019 Zilzilaviy hududlarda qurilish. Toshkent - 2019.

13. QMQ 2.02.01 – 98 Bino va inshootlarni zaminlari. QMQ - 1997.